НОВАЯ ЭРА НАУКИ И ЗНАНИЙ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ
global-science-review.com
editor@global-science-review.com

TILSHUNOSLIKDA NORASMIY MULOQOTNING O‘RGANILISHI

Keldiyorova Ziyoda Hamza qizi
Qarshi davlat universiteti magistranti
@ziyodakeldiyorova@gmail.com
+998914682829

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda norasmiy muloqot muammosi nutqiy faoliyatning real funksional xususiyatlarini o‘rganish bilan bevosita bog‘liq holda tadqiq etilmoqda. Ushbu yo‘nalishning rivojlanishi, avvalo, og‘zaki nutq va kundalik kommunikatsiyaning lingvistik tabiatiga e’tiborning kuchayishi bilan izohlanadi. Shu jihatdan norasmiy muloqot tilning jonli faoliyat shakli sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Bu masalaning nazariy asoslari XX asr lingvistikasida, xususan, fransuz tilshunosi Sh. Balli g‘oyalarida muhim o‘rin egallaydi. U og‘zaki nutqni o‘rganish zarurligini ta’kidlab, tilshunoslikning rivojlanishi aynan “jonli nutq”ni tadqiq etish bilan bog‘liqligini alohida qayd etgan. Ushbu qarash keyingi davr kommunikativ tilshunoslik va sotsiolingvistika yo‘nalishlarining shakllanishiga metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Norasmiy muloqotning tilshunoslikda o‘rganilishi

Norasmiy muloqotning ilmiy o‘rganilishi, ayniqsa, rus tilshunosligida keng rivojlangan bo‘lib, E.A. Zemskaya, M.V. Kitaygorodskaya va M.V. Rozanova, L.P. Krisina, O.B. Sirotinina, E.N. Shiryaev kabi olimlarning ishlari bu sohada muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning tadqiqotlarida og‘zaki so‘zlashuv nutqi, kichik ijtimoiy guruhlardagi kommunikatsiya hamda kundalik muloqotning funksional xususiyatlari chuqur tahlil qilingan. Zemskaya norasmiy nutqni adabiy tilning so‘zlashuv varianti sifatida ko‘rib, uning rasmiy nutqdan farqli ravishda erkin, situativ va emotsional xarakterga ega ekanini ta’kidlaydi. M. Kitaygorodskaya va M. Rozanova esa og‘zaki nutqni ijtimoiy sharoit va kommunikativ vaziyat bilan

uzviy bog‘liq hodisa sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuvlarda norasmiy muloqotning ijtimoiy-lingvistik tabiati asosiy o‘ringa chiqadi. Krysinning ishlarida norasmiy muloqot shaxslararo munosabatlar doirasida shakllanuvchi, me’yoriy jihatdan kamroq cheklangan kommunikativ tizim sifatida talqin etiladi. O. Sirotinina esa og‘zaki nutqni funksional-stilistik jihatdan tahlil qilib, uning ichki variantliligi va kommunikativ vaziyatga bog‘liqligini asoslab beradi.

Norasmiy muloqotning lingvistik tadqiqida muhim yo‘nalishlardan biri uning rasmiy muloqot bilan o‘zaro munosabati va chegaralarini aniqlash hisoblanadi. Bu jihatdan rasmiy–norasmiy oppozitsiya kommunikativ kategoriyaning markaziy masalalaridan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotlarda ushbu ikki shakl o‘rtasida qat’iy chegara emas, balki o‘tish va aralash zonalar mavjudligi qayd etiladi. Shu munosabat bilan A. Baykulova tomonidan ilgari surilgan “rasmiylik / norasmiylik” kategoriyasining kommunikativ tashkil etuvchi xususiyati haqidagi qarashlar alohida ahamiyatga ega. Muallif ushbu oppozitsiyani statik emas, balki dinamik tizim sifatida talqin qilib, uning markaziy va periferik zonalarga ega ekanligini asoslaydi. Ayniqsa, “aralash muloqot zonasi” tushunchasi norasmiy muloqotning murakkab tabiatini yoritishda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Norasmiy muloqotning yadro va periferik zonalari

Tadqiqotlarda norasmiy muloqotning ijtimoiy jihatdan turli ko‘rinishlari ham ajratiladi. Xususan, oilaviy, do‘stona va qarindoshlik muloqoti uning yadro (markaziy) shakllari sifatida ko‘rsatiladi. Bu turlarda yaqinlik, emotsional bog‘liqlik va erkin nutqiy xulq ustunlik qiladi. Shuningdek, ishchi guruhlar va professional muhitdagi muloqotda norasmiy elementlarning mavjudligi ham qayd etiladi. Norasmiy muloqotning muhim lingvistik xususiyatlaridan biri uning og‘zaki nutqqa yaqinligi, spontanligi, situativligi hamda emotsional-ekspressiv vositalarning faol qo‘llanishidir. Bu holat uni rasmiy muloqotdan keskin farqlovchi asosiy belgilarni tashkil etadi. Umuman olganda, zamonaviy tilshunoslikda norasmiy muloqot murakkab, ko‘p qatlamli va dinamik kommunikativ hodisa sifatida qaraladi. U

nafaqat kundalik nutqni, balki ijtimoiy munosabatlarning turli shakllarini ham qamrab oladi. Shu sababli uning o‘rganilishi kommunikativ tilshunoslik, pragmalingvistika va sotsiolingvistika uchun muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Norasmiy muloqot hanuzgacha to‘liq o‘rganilmagan hodisa bo‘lib qolmoqda. Hatto “neformal muloqot” atamasi “norasmiy muloqot” tushunchasini siqib chiqarish holatlari ham kuzatiladi, bu esa ilmiy jihatdan to‘liq asoslanmagan.

Norasmiy muloqot ijtimoiy munosabatlar tizimida quyidagi tuzilma asosida ko‘riladi: yadro zona va periferik zona. Bu tasnif shartli bo‘lib, real hayotdagi munosabatlar doimo murakkab va o‘zgaruvchan xarakterga ega.

Yadro zonaga quyidagi muloqot turlari kiradi: oilaviy muloqot, qarindoshlar o‘rtasidagi muloqot, do‘stona muloqot. Ushbu turlarda quyidagi xususiyatlar ustunlik qiladi: erkinlik va tabiiylik, tayyorgarliksiz nutq, spontanlik, dialogiklik, mavzuning erkin rivojlanishi, kontekstga bog‘liqlik.

So‘zlashuv nutqi va uning tadqiq yo‘nalishlari

So‘zlashuv nutqi norasmiy muloqotning asosiy realizatsiya shakli hisoblanadi. So‘zlashuv nutqi hodisasini kuzatilgan materiallar asosida tahlil qiladigan bo‘lsak, u asosan uch muhim yo‘nalishda o‘rganilganini ko‘rish mumkin. Jumladan, tilshunos olim O. Sirotina fikriga binoan, so‘zlashuv nutqi quyidagi xususiyatlar asosida tadqiq etiladi:

• Dialektal so‘zlashuv nutqini real dialekt materiallari orqali tahlil qilish;

• Dialogik nutqni tadqiq etish, bunda adabiy so‘zlashuv tili turli nutqiy hodisalar asosida o‘rganiladi;

• Shaharliklar nutqini tahlil qilish, ya’ni shahar aholisi nutqining o‘ziga xos tomonlarini tekshirish.

Tilshunos T. Vinokur ta’kidlashicha, so‘zlashuv nutqi hodisasini yoritishda yuzaga kelayotgan ilmiy chalkashliklarning asosiy sabablaridan biri — bu uning nutqiy jarayonlar, xususan funksional-stilistik holda yetarli darajada o‘rganilmaganligidir. Yana bir muhim jihat shundaki, so‘zlashuv nutqining o‘zi ko‘p

qirrali va murakkab hodisa hisoblanadi. Shuningdek, so‘zlashuv nutqi tushunchasining tilshunoslikda aniq va yagona tarzda belgilab olinmaganligi uni talqin qilish va tahlil etishda terminologik xilma-xillik hamda izchillikning yetishmasligiga olib kelmoqda. Natijada “so‘zlashuv nutqi” atamasi turli ma’nolarda qo‘llanib kelinmoqda. Jumladan, u ba’zan dialogik nutq, adabiy tilning og‘zaki norasmiy shakli, umumiy og‘zaki nutq, xalqning jonli tili, dialektal nutq yoki kundalik muloqot nutqi ma’nolarida ishlatiladi. Bu atamalarning o‘zaro farqlanmasdan, chalkash holda qo‘llanilishi nafaqat o‘zbek tilshunosligiga, balki umuman jahon tilshunosligiga xos muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Periferik zonada quyidagi turlar mavjud: tanishlar o‘rtasidagi muloqot, notanishlar o‘rtasidagi muloqot. Bu sohalarda rasmiylik va norasmiylik chegaralari aniq emas, ya’ni aralash muloqot tipi yuzaga keladi.

Norasmiy muloqotning parametrik tahlili

Norasmiy muloqot parametrik tahlili. Har bir muloqot turi quyidagi parametrlar asosida tahlil qilinadi:

• muloqot sohasi (kundalik, ish, ilmiy va boshqalar);
• kommunikantlar (oila a’zolari, do‘stlar, hamkasblar);
• appersepsion baza (tajriba va bilimlar majmui);
• muloqot xarakteri (erkin yoki majburiy);
• joy (uy, ish joyi, jamoat joylari);
• vaqt (zamon);
• maqsad;
• mavzu;
• nutq xususiyatlari (leksika, etik normlar, janrlar).

Norasmiy muloqotning asosiy qismini oilaviy muloqot turi tashkil qiladi. Oilaviy muloqot birga yashovchi va qarindoshlik aloqalariga ega shaxslar o‘rtasidagi kommunikatsiya sifatida tavsiflanadi. U quyidagi xususiyatlarga ega: ijtimoiy va kommunikativ rollarning mavjudligi (ota, ona, farzand va h.k.),

rituallashgan nutq shakllari, kundalik hayot bilan uzviy bog‘liqlik, hissiy va pragmatik birlik. Qarindoshlar muloqotini oilaviy muloqotdan farqlash lozim. Unda yashash joyi turlicha bo‘ladi. Aloqa epizodik xarakterga ega va maqsad: qarindoshlik aloqalarini saqlash hisoblanadi. O‘zbek xalqida bu ajdodlardan meros sifatida urug‘, qavm-qarindosh, yondosh, jigar kabi sifatlarni ifodalaydi. Do‘stona muloqot ham norasmiy muloqotning bir turi sifatida kiritishimiz mumkin. Do‘stona muloqot individual tanlov asosida shakllanadi va tenglik tamoyiliga asoslanadi. Bu turda ijtimoiy ierarxiya yo‘q va hissiy yaqinlik kuchli. Yana bir turi bu aralash muloqot, ya’ni tanishlar va notanishlar o‘rtasidagi muloqotda rasmiy va norasmiy elementlar aralashadi, kommunikatsiya doimo barqaror emas, nutq shakllari o‘zgaruvchan. Taqdim etilgan tasnif norasmiy muloqotni tizimli o‘rganishga imkon beradi. Bu yondashuv tilning kundalik hayotdagi real ishlash mexanizmlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. U so‘zlashuv nutqining ichki variantlarini aniqlash va ularning funksional farqlarini ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega.

Oilaviy muloqot leksikasi va erkalash birliklari

Shuningdek, so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lgan qon-qarindoshlik atamalari va ularning ma’no xususiyatlari ham alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Bu boradagi tadqiqotlar L.A. Pokrovskaya, M. Kozimbek, A. G‘ulomov, I. Ismoilov, B. O‘rinboyev, E. Begmatov, A. Inomov, T. Tursunpo‘latov kabi olimlarning ishlarida atroflicha yoritilgan.

Tilshunos M. Tursunpo‘latov “so‘zlashuv uslubining o‘ziga xos leksik xususiyatlarga egaligini alohida ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, tilshunoslikda mazkur leksik qatlamni aynan so‘zlashuv nutqi nuqtai nazaridan o‘rganishga yetarli darajada e’tibor qaratilmagan. Tadqiqotda qayd etilishicha, turkologiyada, xususan o‘zbek tilshunosligida evfemizmlar, taqlidiy so‘zlar va undovlar, jargonlar, frazeologizmlar hamda takroriy so‘zlar yuzasidan maxsus ilmiy izlanishlar olib borilgan. So‘zlashuv nutqi jonli, hayotiy va kundalik turmush bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli, unda kishilarning o‘zaro munosabatlari, hayot tarzi hamda ijobiy va salbiy

jihatlari tabiiy ravishda aks etadi. Shu bois, so‘zlashuv nutqida so‘zlovchilarning ruhiy holati, ichki kechinmalari va umumiy psixologik ahvoli ham ifodalanadi. Bunday holatlarni ifodalovchi birliklar nutqda keng qo‘llanadi va ular ilmiy adabiyotlarda erkalov hamda kuchaytiruv ma’nosini bildiruvchi so‘zlar sifatida talqin etiladi. Jumladan, bu turkumga buvijonim, bo‘talog‘im, erkatoyim, do‘ndiqcham, bolaginam, bolajonim, polvoncham, yulduzcham, ayajon, bibijon, qoqajon, duganajon, o‘rtoqcham, jigarginam, oyimcha, oyimchaxon, Nodiraxon, yoqimtoy, xonim afandim, oppog‘im kabi birliklar kiradi. Bundan tashqari, –cha, –choq, –loq, –toy, –xon, –gina kabi qo‘shimchalar yordamida ham erkalov-kichraytuv ma’noli so‘zlar hosil qilinadi. Masalan: Otamning odatlari qiziq-da: meni hech vaqt “To‘raboy, ke!” deb chaqirmaydi, shunchaki, “To‘raboy!” deb qo‘ya qoladi.

O‘zbek tilshunosligida so‘zlashuv nutqining talqini

So‘zlashuv nutqi qanday hodisa ekani, uning nutqiy tizimlardagi, funksional uslublardagi, shuningdek adabiy til va kundalik muloqot jarayonidagi o‘rni masalasi tilshunoslikda (rus va o‘zbek turkologiyasida) turlicha talqin etilgan. Xususan, professor B. O‘rinboyev o‘zbek so‘zlashuv nutqining sintaktik xususiyatlariga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasida bu boradagi ilmiy qarashlarni umumlashtirib, so‘zlashuv nutqini bir necha yo‘nalishda izohlaydi. Unga ko‘ra, so‘zlashuv nutqi:

• Og‘zaki nutqning bir ko‘rinishi sifatida talqin etiladi;

• Qayta ishlanmagan, ya’ni normativ jihatdan to‘liq tartibga solinmagan og‘zaki nutq hisoblanadi;

• Adabiy tilning og‘zaki, adabiy so‘zlashuv shakli sifatida qaraladi;

• Funksional uslublardan biri sifatida e’tirof etiladi;

• Adabiy tilning og‘zaki shakliga xos uslubiy ko‘rinishlardan biri sifatida baholanadi;

• Nutqiy formalardan biri sifatida izohlanadi;

• So‘zlashuv nutqi nutqning muhim turlaridan biri hisoblanadi;

• So‘zlashuv nutqi adabiy til bilan xalq so‘zlashuv tili o‘rtasida vositachi vazifasini bajaruvchi nutq ko‘rinishidir;

• So‘zlashuv nutqi kundalik hayotda faol qo‘llaniladigan nutq turidir;

• So‘zlashuv nutqi adabiy tilning og‘zaki shakli bilan mahalliy shevalar oralig‘ida joylashgan nutq shaklidir;

• So‘zlashuv nutqi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan mustaqil tizimdir.

So‘zlashuv nutqi hodisasining yuqorida qayd etilgan turli ko‘rinishlarda talqin qilinishi, avvalo, ushbu nutqiy tizimga tadqiqotchilarning har xil yondashuvi hamda uni turli nuqtai nazardan o‘rganishi bilan izohlanadi. Bu holat tabiiy bo‘lib, so‘zlashuv nutqining murakkab va ko‘p qirrali hodisa ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. So‘zlashuv nutqini to‘g‘ri talqin etish va uning mohiyatini ilmiy asosda yoritish uchun mazkur hodisani turli jihatlaridan, ya’ni yuqorida keltirilgan yo‘nalishlar doirasida kompleks o‘rganish zarur. Shu bois, masalaning aynan shu tomoniga alohida e’tibor qaratgan holda ilmiy tadqiqotlarni olib borish maqsadga muvofiqdir.

Tilshunos A. Shomaqsudov o‘zbek tilida nutqiy stillar, ya’ni uslublar haqida fikr yuritar ekan, shunday deydi: “So‘zlashuv stili, asosan, bevosita kundalik (og‘zaki) muloqot uchun xizmat qiladi”. U hozirgi zamon o‘zbek tilida so‘zlashuv uslubini ikki turga, oddiy so‘zlashuv va adabiy so‘zlashuv uslublariga ajratadi. Adabiy so‘zlashuv stili oddiy so‘zlashuv stilidan farqli o‘laroq, adabiy til me’yorlariga mos, tartibga solinganligi bilan farqlanadi. Unda grammatik noaniqliklar, erkin gap qurilishlari, jargon, sleng va shevalar odatda uchramaydi. Bunday uslubdan davlat tashkilotlari xodimlari, televideniye xodimlari ko‘proq foydalanishadi.

Professor B. O‘rinboyev o‘zining ushbu sohaga bag‘ishlangan qator maqola va monografiyalarida so‘zlashuv nutqi sintaksisi yuzasidan muhim ilmiy

mulohazalarni ilgari suradi. Shuningdek, tilshunos S. Xoldorovaning “Hozirgi zamon o‘zbek tilida dialogik nutqning semantik-strukturaviy xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiyasida ham dialogik nutqning sintaktik tuzilishi atroflicha tadqiq etilgan. Mazkur ishda muallif “so‘zlashuv nutqi” (“razgovornaya rech”) atamasidan keng foydalanadi.

Internet-kommunikatsiya va norasmiy muloqot

Zamonaviy tilshunoslikda norasmiy muloqot nafaqat og‘zaki (so‘zlashuv) nutq shakli, balki ijtimoiy-madaniy va texnologik omillar ta’sirida transformatsiyaga uchrayotgan murakkab pragmatik tizim sifatida talqin etilmoqda. Ayniqsa, XXI asr boshlaridan e’tiboran virtual makonning kengayishi norasmiy muloqotning yangi – internet-kommunikatsiya (yoki kebir-diskurs) turini yuzaga keltirdi. Bu atamaning “internet tili”, “ijtimoiy tarmoq muloqoti”, “internet muloqoti” kabi sinonimlari qo‘llaniladi. Jahon tilshunosligida ushbu yo‘nalishning nazariy asoslari D. Kristal, N. Baron, L. Stevinsonlar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular internet tilini “Netspeak” sifatida an’anaviy yozma va og‘zaki nutqning o‘ziga xos sintezi deb ta’riflaydi. Olimlarning fikricha, bunday muloqot turi o‘zining spontanligi va norasmiyligi bilan og‘zaki nutqqa yaqin tursa-da, grafik fiksatsiyasi (yozma shakli) bilan an’anaviy matn ko‘rinishiga ega. O‘zbek tilshunosligida S. Mo‘minov, S. Karimov, Z. Qurbonov, N. To‘xliyeva, M. Jo‘rayevalar o‘zlarining ilmiy ishlarida o‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlarini o‘rganar ekan, norasmiy vaziyatlarda muloqot ishtirokchilarining o‘zaro pragmatik munosabatlari va nutqiy etiket normalarining o‘zgarishiga e’tibor qaratadi, o‘zbek internet tilining shakllanishi va transliteratsiya hodisalari haqida ilk ilmiy fikrlarini ilgari surgan.

Xulosa

Demak, norasmiy muloqotning adabiy til, og‘zaki nutq hamda kundalik kommunikativ jarayonlar bilan uzviy bog‘liqligi uning alohida ilmiy obyekt sifatida o‘rganilishini taqozo etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, norasmiy muloqotning

ichki tuzilishi ijtimoiy munosabatlar, kommunikantlar o‘rtasidagi yaqinlik darajasi hamda nutqiy vaziyat bilan bevosita bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Balli Sh. Yazyk i zhizn. Per. s. fr. [Language and Life. Transl. from French]. Moscow: URSS Publ., 2003. 230 p.
2. Земская Е.А. Городская устная речь и задачи ее изучения // Разновидности городской устной речи. М.: Наука, 1988.
3. Китайгородская М.В., Розанова Н.Н. Языковое существование современного горожанина. М.: Языки славянской культуры, 2010.
4. Сиротинина О.Б. Русский язык: система, узус и создаваемые ими риски. Саратов: Изд-во Саратовского университета, 2013.
5. Китайгородская М.В., Розанова Н.Н. Речь москвичей: коммуникативно-культурологический аспект. М.: Русские словари, 1999.
6. Байкулова А.Н. Неофициальное общение: повседневная речь горожан. Саратов: ИЦ «Наука», 2014.
7. Сиротинина О.Б. Речь города: проблемы, аспекты и трудности изучения // Язык современного города: тезисы докладов международной конференции «Восьмые Шмелевские чтения». М.: Институт русского языка им. В.В. Виноградова РАН, 2008. С. 146–148.
8. Винокур Т.Г. Говорящий и слушающий: варианты речевого поведения. М.: Едиториал УРСС, 2009. 176 с.
9. Tursunpo‘latov M. Leksika uzbekskoy razgovornoy rechi: avtoref. dis. … kand. filol. nauk. Toshkent, 1982.
10. Xolmirzayev Sh. O‘zbekning soddasi: hikoya. Toshkent: Sharq, 2003.
11. O‘rinboyev B. O‘zbek so‘zlashuv nutqi sintaksisi. Toshkent: Fan, 1974.
12. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1983. 9-b.

13. O‘rinboyev B. O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. Toshkent: Fan, 1974. 11-b.
14. Xoldorova S.M. Semantika-strukturnыe osobennosti dialogicheskoy rechi v sovremennom uzbekskom yazyke: avtoref. dis. … kand. filol. nauk. Toshkent, 1974. 5-b.
15. Crystal D. Language and the Internet. Cambridge: Cambridge University Press, 2006. 304 p.
16. Baron N.S. Always On: Language in an Online and Mobile World. Oxford: Oxford University Press, 2008.
17. Stevenson L. The Language of Social Media: Identity and Community on the Internet. Routledge, 2014.
18. Mo‘minov S.M. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: filol. fan. doktori diss. avtoref. Toshkent, 2000. 52 b.
19. Qurbonov Z. Zamonaviy o‘zbek tilining rivojlanish omillari. Toshkent: Fan, 2020.
20. Jo‘rayeva M. Tarmoq kommunikatsiyasi va yoshlar nutq madaniyati // Filologiya masalalari. 2021. № 2.
21. To‘xliyeva N. Internet tili va uning lingvistik xususiyatlari // O‘zbek tili va adabiyoti. 2019. № 3.